

## TEATR AKTYORLIGI SAN'ATI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Nurpo'latova Ozoda Hasan qizi**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish  
ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqali teatr aktyorligi san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari o'zbek musiqali teatr san'ati asarlari, ularning repertuari, aktyorlik mahorati kabi alohida xususiyatlarga to'xtalinib, tahlil qilinib yondashilgan. Shuningdek, aktyorlik mahoratini oshirishga doir sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan o'rinli yondashuvlar asosida fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'z:** musiqali teatr, aktyorlik mahorati, repertuar, qahramon, obraz talqini, his-tuyg'u

## ТЕАТРАЛЬНОЕ ИСКУССТВО И ЕГО ОСОБЕННОСТИ

**Нурполлатова Озоды Хасан кизи**

Государственный институт искусства и культуры Узбекистана  
Организация и управление учреждениями  
культуры и искусства студент 3 курса обучения

**Аннотация:** В данной статье представлена подробная информация об актерском искусстве музыкального театра и его специфических особенностях. Кроме того, обсуждаются и анализируются такие особенности, как произведения узбекских музыкальных театров, их репертуар, актерское мастерство. Также на основе соответствующих подходов были высказаны мнения относительно проделанной работы в области совершенствования актерского мастерства.

**Ключевые слова:** музыкальный театр, актерское мастерство, репертуар, персонаж, интерпретация образа, эмоция.

## THE ART OF THEATER ACTING AND ITS SPECIFIC CHARACTERISTICS

**Nurpo‘latova Ozoda Hasan qizi**

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan  
Organization and management of cultural and art institutions  
student of the 3rd year of education

**Abstract:** This article provides detailed information about the art of musical theater acting and its specific features. In addition, special features such as Uzbek musical theater works, their repertoire, and acting skills are discussed and analyzed. Also, based on appropriate approaches, opinions were expressed regarding the work done in the field of improving acting skills.

**Key word:** musical theater, acting skills, repertoire, character, image interpretation, emotion

Ijodiy hissiyot huzur baxsh etmog‘i darkor. Hayotda sezgi va hissiyotlar haqiqiy bo‘ladi (ko‘z yoshlar, og‘riq sezish, iztirob chekish va boshq). Sahnadagi hissiyotlar tasavvurdagi hissiyotlar bo‘lishi kerak. “San‘atning his-tuyg‘usi aqlli tuyg‘ular hosilidir. Ular bosh miya qobig‘ida fantastik tarzda vujudga keladi. Har qanday fantastik va haqiqatdan uzoq tuyg‘u va hissiyotlar real tuyg‘ular oqibatida tug‘iladi.”<sup>16</sup> Bu hissiyotlar bir-biriga o‘xshaydi. Ammo sahnaviy hissiyotlar badiiylashgan holda bo‘lib, ijodkorga quvonch bag‘ishlaydi. Shuning uchun aktyorning ijodida quvonch hislari, ko‘tarinki ruh, zo‘r istak va ishtiyoq bilan yonishi har bir spektakl, hatto boshlang‘ich mashg‘ulotlar davrida yo‘qolmasligi kerak. Hatto ijod mashaqqatlari ham quvonchlidir. Avvaldan, haqiqatda bunday bo‘lishi mumkin emasligini anglagan holda o‘zi bajarayotgan ish va holatga

ishonmoqlik o'ta muhim qobiliyat. Esda tutib - unitish, qayg'urib turib - qayg'urmaslik, bu jumboqli qarama - qarshilik aktyor ijodi psixologiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'z imkoniyatlariga ishonmoq ijodiy ilhom baxsh etadi, ilhom esa o'z navbatida ong osti hissiyotiga ta'sir etib, har qanday ijod turi uchun turtki beradi. Aktyor qobiliyatini aniqlovchi ilk sinov uni berilgan shart-sharoitga bo'lgan ishonch darajasidir. Bolalardek ishonuvchanlik tabiat ehsoni bo'lib, u faqat iste'dodli aktyorlargagina nasib etadi. Buning uchun ko'pincha sabr-toqat va mashaqqatli mehnat orqaligina erishish mumkin. Hatto eng qobiliyatli aktyorlar ham, ayniqsa, ijodiy jarayonning boshlang'ich qismida o'ziga ko'pam ishonmaydilar. Ilhom so'qmoqlari aqliy mehnat orqali bo'y ko'rsatishi mumkin. Tahlil, chuqur mulohaza qilish, anglash, tasavvurning ishlashi, fantaziyaning ixtiro qilish qobiliyati - obraz yaratish mumkin bo'lgan qurol. Ongli mehnat asta-sekinlik bilan sahnada "jismoniy harakatlar uslubi" orqali sinovdan o'tkaziladi. Eng muhimi bunday mashaqqatli mehnat ijodkorga huzur bag'ishlashi kerak. San'at qalb hissiyotlarni ixtiro qiladi va qalb bilan qabul qilinadi. Aktyordan haqiqiy hissiyotlar bilan yashashni, qiyofaga kirish, tuslanishni talab qilinadi. Ammo qanday? Sahnaviy hissiyotlarni qanday uyg'otish mumkin? Yangi, to'lqinlantiruvchi jonli teatrni yaratish maqsadida K.S.Stanislavskiy va V.I.Nemirovich-Danchenkolar A.P.Chexov, A.M.Gorkiy dramaturgiyasiga murojaat etadilar. Chunki bu yozuvchilarning asarlari markazida insonning o'zi, uning kayfiyati, hissiyot va sezgilari yuksak parvozli bo'lgan. Bu asarlarda sezgilarni, hissiyotlarni qo'zg'atuvchi, ularni o'zgartirishga xizmat qiluvchi muhit va kayfiyat mavjud bo'lgan. Mazkur spektakllar teatr estetikasi va aktyor ijrosi uslubiyatida burilish yasashga asos bo'ldi. <sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Islomov T. Tarix va sahna – T.: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'ati nashriyoti, 2018.

Ammo keyinchalik bir qator muammolar, xususan, aktyor ijrosida haqiqiy hayotdagidek o'z hissiyotlari iskanjasiga tushib qolish holatlari, K.S.Stanislavskiyni aktyor psixikasini harakatga keltiruvchi tayanch nuqtalarini izlashga majbur qiladi. O'z zamonasidagi psixologiya yutuqlariga tayangan K.S.Stanislavskiy hissiyotlarni qo'zg'atuvchi birdan-bir omil harakat ekanligini anglab yetadi.

Ma'lumki, inson psixikasini harakatga keltiruvchi kuch: aql, hissiyot va irodadir. Aktyor ijodiyotida haddan tashqari o'z-o'zini ongli nazorat qilish erkin ijod qilishni so'ndiradi. Hissiyotlarni esa xotirada mustahkam saqlab qolish imkoni yo'q. Biz faqat irodaviy harakatni xotirada saqlab qolishimiz mumkin ekan. Har qanday harakat qarshi harakatga duch kelganida maqsadga erishish yoki erishaolmaslik natijasida mutanosib hissiyotlar qo'zg'aladi. K.S.Stanislavskiy irodaviy xatti-harakat aktyor ijodiyoti psixologiyasining asosiy qonuni, hissiyotlarni qo'zg'atuvchi yagona omil ekanligini ixtiro qilgan. Mana shu buyuk kashfiyot sahnaviy his-tuyg'ularni qo'zg'atuvchi turtkisidir (провокатор сценических чувств). "Aktyor" atamasi ham - harakat qiluvchi ma'nosini anglatadi. Sahnaviy his-tuyg'ular aktyorning ixtiyoriy va beixtiyoriy ijod mahsulidir. Rejissor aktyor bilan birgalikda xatti-harakat tahlilini o'tkazar ekan oliy maqsadni, berilgan shart-sharoitni, uzluksiz xatti-harakat, asardagi voqealar tizimini belgilaydi. Maqsadni oydinlashtiradi, qahramonlarning o'zaro munosabatlari, voqea va faktlarga nisbatan e'tibor darajasini, ishtirokchilarning uzluksiz xatti-harakatini belgilaydi. Bu jarayon ixtiyoriy, ya'ni ongli ravishda anglash orqali bajariladi. Harakatga turtki bo'lgan vaziyat va holat, maqsadlar aniqlangach aktyor maqsadga erishish uchun irodani ishga soladi va sahnada beixtiyoriy tarzda harakat qiladi. Ya'ni badiha ixtiyorida bo'ladi. "Aktyor ijod etish jarayonida biror bir sistema - uslub haqida o'ylay boshlasa, o'z-o'zidan ayonki u rolni yomon ijro etadi. Sistema - uslub tabiiy ijodiy jaryonga yordam berishi mumkin, lekin ijod jarayonining o'rnini bosa olmaydi. Aktyor sahnada sistema - uslub talab qiladigan darajada ijod qilish uchun hech

qanday sistema to'g'risida o'ylamasligi kerak. Buning uchun unda vaqt bo'lmasligi kerak. Shunday qilib, K.S.Stanislavskiy aktyorning tabiatini o'rganish borasida olib borgan ijodiy izlanishlari uchta bosqichdan o'tadi: 1- bosqich: aql-idrokni ishga solish orqali hissiyotlarni qo'zg'atish; 2- bosqich: bevosita hissiyotlarga ta'sir etib qo'zg'atish; 3- bosqich: harakat va iroda orqali jonli ijro etishga erishish. <sup>2</sup>

Iroda - inson faoliyatidagi fikr va sezgilar boshqaruvchisidir. Shuning uchun aktyor san'atining yagona vositasi va quroli - harakatdir!

Qaysi san'at xalq hayoti va orzu umidini to'g'ri aks ettirsa hamda ana shu jarayonda xalqning madaniy, adabiy-badiiy merosiga mustaxkam tayansa, o'sha san'at hayotbaxsh, o'sha san'at umrboqiydir. Musiqali drama shuning uchun xam hayotiy, shuning uchun xam tomoshabinlarimizning qalbini rom etganki, uning ildizlari, uni yuzaga chiqargan manbalar xalqchildir. O'zbek musiqali dramasiining ildizlari xalq dostonchilik ijodi bilan bog'liq.

Ma'lumki, o'zbek xalqi dostonchilik asosida juda boy xazina yaratgan. dostonda ma'lum qahramonlarning kechmishi, taqdiri orqali xalqning hayoti, orzu intilishlari ifodalangan. Dostonni xalqdan chiqqan zukko baxshilar yaratganlar va uni kuyga solib, dumbra va boshqa sozlar orqali ham so'z, ham qo'shiq orqali ijro etib kelganlar. Xalq dostonlarida musiqali dramaga hos barcha unsurlar mavjuddir. Avvalo shuki, dostonchi-baxshi nainki doston ijodkori, ayni paytda ham sozanda, ham ijrochi aktyor sifatida qahramonlarning holatiga kirib, ma'lum badiiy obraz qiyofasini ham nomoyon etgan. Tasvir va ifodalar uyg'unligidan iboratdir. Nasriy qismlar baxshi-muallif odatda bir – biriga o'zaro bog'lab, ularga izohlar berib boradi. Izohlar bir daraja boqea mazmuniga yarasha goh tashvishli, mungli, alam – iztirobli, ya'ni haqiqiy fojaviy ohanglar bilan: goh sho'x, lutfli, kulgili, ya'niy hajviy ohanglar bilan ijro etilgan. Bundan tashqari, nasriy qisimlarda ko'pincha sah

---

<sup>2</sup> Rizayev Sh. Sahna ma'naviyati – T.: Ma'naviyat, 2010.

usulida to'qilgan va qahramonlarning uy-fikirlarini ifodalovchi kichik monologlar, qahramonlar orasida bo'lib o'tadigan lo'nda va o'tkir dialoglar mavjud bo'ladi. Musiqali drama ko'rtaklari dostonchilik qatori klassik adabiyotda, shuningdek, ba'diiy so'z ijrochiligi san'atida yanada taraqqiy etadi. Nihoyat, yigirmanchi yillarning ohirida musiqali drama atamaları tez-tez eshitiladigan bo'lib qoldi.<sup>3</sup>

Shunday ekan, g'oyat yuksak badiiy salohiyati bilan ajdodlarimiz poetik iqtidorini o'zida mujassamlashtirgan badiiy ijodiyot durdonalari asrlar davomida bitmas-tuganmas ruhiy quvvat manbai bo'lib xizmat qilgan. Asrlar davomida sahnada ijro qilinib kelgan "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Ravshan va Zulxumor", "Gul va Navro'z", "YUsuf va Zulayxo", "Toxir va Zuxra", "Farxod va SHirin", "Layli va Majnun" kabi buyuk epik asarlar va dostonlarda tarannum etilgan ezgu qarashlar ijrochilikning o'ziga xos xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Zero, teatr san'ati bunyodkorlik va yaratuvchanlik g'oyalaridan kuch olib taraqqiy etgan xalqimizga juda katta ma'naviy ozuqa beruvchi qadriyatlar tizimi bo'lib kelmoqda. Xalq ijodiyoti asarlarida yuksak madaniyatni bunyod etgan ulug' ajdodlarimizning hayot-tarzi, orzu umidlari, urf-odat va an'analari bilan bir qatorda o'zbekona samimiyati aks ettirilganligi nihoyatda ahamiyatlidir. SHu bois, xalqimizning umurboqiy sahna asarlari o'zining chuqur mazmundorligi, tarbiyaviy ahamiyati hamda umrboqiyliigi bilan hamisha millat qalbida ezgu maqsad va yuksak g'oyalar sari intilishga chorlaydi.<sup>4</sup>

Shu o'rinda, o'zbek teatr san'ati rivoji tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning ilk kurtaklari qadim davrlarga borib taqalganligini guvohi bo'lamiz. Musiqali drama

---

<sup>3</sup> To'rabekova R. Ma'naviy qadriyatlar va teatr. // "Teatr", 2017 yil, 5-son.

<sup>4</sup> Rizayev O. Milliy nasrimizning sahna talqinlari. // "Teatr", 2012 yil, 3-son.

teatri ilk qadamlaridan tortib, to alohida janr sifatida rivojlanishida bevosita xalq san'atiga tayanib kelgan. Darhaqiqat, o'zbek musiqali dramasi adabiy matn, musiqa, sahnaviy talqin hamohang bo'lgan milliy teatr san'ati janrlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To'rabekova R. Ma'naviy qadriyatlar va teatr. // "Teatr", 2017 yil, 5-son.
2. Rizayev Sh. Sahna ma'naviyati – T.: Ma'naviyat, 2010.
3. Islomov T. Tarix va sahna – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'ati nashriyoti, 2018.
4. Munisa Mavrulova. (2021). National values as a key factor in the development of the state. *European Scholar Journal*, 2(3), 172-175.  
Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/382>